

OLIV TA'LIMDA TYUTORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI

Kandaxarov Zafar Ishratovich

Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tyutori

Muqimova Shaxnoza Orifxo'jayevna

Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tyutori

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatining ahamiyati, uning mazmun-mohiyati va ta'lim jarayonidagi o'rni yoritib berilgan. Tyutorlik faoliyatining talabalarning akademik, shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Kredit-modul tizimi sharoitida tyutorning akademik maslahatchi sifatidagi vazifalari, talabalarning individual o'quv trayektoriyasini shakllantirishdagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, tyutorlik faoliyatining huquqiy asoslari, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 656-sonli qarori doirasida ushbu institutni joriy etish va rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari tyutorlik faoliyati oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish, talaba markazlashgan yondashuvni ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, tyutorlik faoliyati, tyutor, kredit-modul tizimi, akademik maslahatchi, individual ta'lim trayektoriyasi, ta'lim sifati, talaba markazlashgan yondashuv.*

Oliy ta'limda tyutorlik faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlovchi muhim hujjatlardan biri-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 656-sonli qarori hisoblanadi. Mazkur qaror oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish va ta'lim jarayonini talaba markazlashgan yondashuv asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

656-sonli qarorga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarida talabalarga akademik va tashkiliy jihatdan ko'maklashuvchi tyutor (akademik maslahatchi) instituti joriy etildi. Ushbu qarorda tyutorlik faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

- talabalarga individual o'quv rejasini shakllantirishda maslahat berish;
- fanlarni tanlashda talabaning qiziqishi, qobiliyati va kelajak kasbini inobatga olish;
- kreditlarni o'zlashtirish jarayonini monitoring qilish;
- akademik qarzdorlikning oldini olish;
- mustaqil ta'limni samarali tashkil etishga ko'maklashish.

Shuningdek, 656-sonli qaror tyutorlik faoliyatini ta'lim sifati va shaffofligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida e'tirof etadi. Tyutor va talaba o'rtasidagi tizimli muloqot orqali talabaning o'quv faoliyatidagi muammolar o'z vaqtida aniqlanib, individual yechimlar ishlab chiqilishi ta'minlanadi.

Mazkur qaror asosida oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida (TDIU) tyutorlik faoliyati rektor buyruqlari va ichki nizomlar orqali amaliyotga joriy etilgan. Natijada talabalar bilan individual ishlash, ularning akademik va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimi yanada takomillashtirilgan.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda tyutorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Tyutorlik — bu talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatdir.

Avvalo, tyutorlik talabalarining oliy ta'lim muhitiga moslashuvini yengillashtiradi. O'qish jarayonida yangi tizimlar, jumladan kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim ulushi va fanlarni tanlash mexanizmlari talabalardan yuqori darajada mas'uliyat talab qiladi. Tyutorlar ushbu jarayonda talabalarga akademik maslahat berib, ularning to'g'ri yo'nalishda harakatlanishiga ko'maklashadi.

Tyutorlik faoliyati talabalarining akademik muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tyutorlar talabalarining o'zlashtirish darajasini doimiy monitoring qilib boradi, o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlaydi va individual tavsiyalar beradi. Bu esa talabalarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini boshqarish va bilimga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, tyutorlik talabalarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Tyutorlar talabalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, ularning psixologik holatini qo'llab-quvvatlash, jamoada ishlash va muloqot madaniyatini rivojlantirishda maslahatlar beradi. Bu jarayon talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, tyutorlik faoliyati talabalarining kasbiy yo'nalishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tyutorlar talabalarni kelajak kasbiga tayyorlash, mehnat bozoriga mos ko'nikmalarni shakllantirish, amaliyot va ilmiy izlanishlarga yo'naltirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

“Tyutor” yangi atamasi nutqimizga ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, u ustoz va murabbiy vazifasini bajaruvchi shaxs ma'nosini ifodalaydi.

Tyutor lavozimi 2021-yil 1- sentyabrdan boshlab talabalar bilan ishlash bo'yicha “Guruh murabbiyi” instituti bekor qilingach, uning o'rniga talaba-yoshlar bilan ishlovchilar – tyutorlar sifatida tashkil etildi.

Mazkur lavozim egasi, tom ma'noda, talabani o'qitish tizimi bilan uzviy bog'lanishini ta'minlovchi; talabada o'quv jarayoni davomida o'z salohiyatini namoyon qilish, o'zini, o'zligini, intilishu dunyoqarashini teran anglash, o'z faoliyatini ongli ravishda nazorat qilish, xatti-harakatlarini tizimli boshqarish borasida to'g'ri qarorlar qabul qila olish malaka va ko'nikmalarini rivojlantiruvchi shaxs sanaladi.

U talabaga har bir faoliyat va harakatlarining oqibatlarini ongli ravishda anglashga, hayotda o'z orzulari ro'yobini ta'minlash yo'llarini topishga ko'maklashadi.

Tyutorning faoliyati samarasi talabaning o'qib o'rganishga bo'lgan ichki intilishi kuchayishi va ta'limning samarali jarayonga aylanishi bilan o'lchanadi.

Tom ma'noda, oliy ta'lim tizimida ta'limtarbiya jarayonining samaradorligi «professor-o'qituvchi – talaba – tyutor» hamkorligida ta'minlanadi.

Tabiiyki, tyutor lavozimini egallagan oliy ma'lumotli shaxs, ya'ni murabbiy, ustoz, talaba ta'lim olayotgan soha mutaxassisi sifatida pedagogik, psixologik, etik, estetik

jihtadan barkamol, o'zligini anglagan, dunyoqarashi keng, sog'lom fikrli, intellektual salohiyatli bo'lishi lozim. Shuning uchun ham tyutorning oylik ish haqi o'qituvchi-stajyorning bazaviy lavozim maoshiga tenglashtirilgan. Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovasion va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida faoliyat olib borishi mo'ljallangan tyutorlar faoliyati dunyo ta'lim tizimi uchun yangilik emas.

Manbalarga ko'ra, tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish dastlab oila bolalariga uylarida xususiy ta'lim berish jarayonida shakllangan va rivojlangan. Keyinchalik bu ommaviy ta'lim tizimiga ko'chgan. Jumladan, qadimgi Yunonistonda ham asosiy ta'lim jarayoniga yordamchi sifatida tyutorlar faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. Hozirda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida tyutorlik xizmatidan foydalaniladi.

Hatto ular Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Finlandiya, Koreya, Rossiya kabi o'nlab mamlakatlarda maxsus o'qitiladi, tyutorlar tahsil yakunida diplom olishadi. Masalan, Germaniya, Koreya, Rossiya mamlakatlarida pedagog-xodimlar tayyorlash sohasiga ixtisoslashtirilgan oliygohlarda bakalavr va magistratura bo'yicha maxsus tyutorlik kurslari mavjud.

Sivilizatsiya erishgan yurtlarda tyutorlik markazlari va assosiasiyalar faoliyat yuritishini kuzatishimiz mumkin.

Tyutorning lavozim vazifasi asosida boshqa odam (ta'lim oluvchi)ga o'qishni samarali va qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam berish mo'ljali turadi. Tyutor bu mo'ljalni ro'yobga chiqarish uchun ham butun guruh bilan, ham individual tarzda ishlashi kerak bo'ladi. Oliy ta'limda tyutorlar quyidagi lavozim vazifalarini tizimli reja asosida olib boradilar:

ma'ruzachi tomonidan o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarga yordam berish va shu orqali dunyoqarashi endi shakllanayotgan talabani muntazam ilm o'rganishga odatlantirish; talabani o'qishi va kundalik hayoti o'rtasida muvozanat o'rnatilishini ta'minlash;

talabalarga vaqtini menejment qilish masalalarida ta'sir ko'rsatish; talaba tanlagan soha ilmiga oid qiziqarli, ta'sirli ma'lumotlarga urg'u berish, tanlagan sohasi, kasbiga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash;

talabani kuchli taraflarini, ichki (yashirin) qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga ko'maklashish; talabani o'z kamchiliklari ustida ishlashga o'rgatish; talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklash;

talabalarni Vatanga, el-yurtga, milliy qadriyatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalash; talabalarni turli ilmiy to'garaklarga jalb etish va h.k.

Belgilangan vazifalar tyutorlarimizdan yuksak saviya va muntazam mehnatni talab etadi.

Oliy ta'lim tizimida tyutorlar faoliyatini yo'lga qo'yish, ularni lavozimga tayinlash bo'yicha tyutorlar oldiga qo'yilgan bir qancha talablar mavjud. Ular quyidagilardan tashkil topgan.

a) Tyutorlar oliy ma'lumotga ega bo'lishi (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxslarga afzalliklar beriladi);

b) 25 yoshdan kichik, 55 yoshdan (ayollar uchun 50 yosh) katta bo'lmasligi;

c) Pedagogik va psixologik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, ta'lim tizimida boshqaruv faoliyati bilan shug'ullangan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda 2 yildan kam bo'lmagan (2 yildan ko'p bo'lganlarga ustuvorlik beriladi) mehnat stajiga ega bo'lishi;

d) Qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'lim berish huquqidan mahrum etilmagan bo'lishi;

e) Namunaviy shaxsiy fazilatlariga – intellekt, madaniyatli, ijodiy, xushmuomalalik, vatanparvarlik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi, mas'uliyat hissi, mustaqil ish tutish xususiyatlariga ega bo'lishi zarur.

Tyutorlikka nomzodlar Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tajribali, talabalar orasida katta hurmat va e'tibor qozongan, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar uslubiyati va amaliyotini chuqur anglab yetgan, pedagogik va psixologik bilim va tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchi va boshqa xodimlar orasidan tanlanib, universitetga ishga qabul qilish bo'yicha komissiyaga taqdim etiladi. Ishga qabul qilish komissiya xulosasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Tyutorlik faoliyatining markazida talaba turadi.

Bu jarayon muayyan shaxsning shaxsiy ehtiyojlari, maqsadlari va sharoitlarini unumli tashkil etish va ta'minlashni o'z ichiga qamrab oladi.

Samarali tyutorlik jarayoni aniq yo'nalishlarga va talabalarining ehtiyojlarini qondirish uchun vaqt o'tishi bilan doimiy ravishda tuziladigan va moslanadigan rejaga ega bo'lishlikni talab qiladi.

Bir so'z bilan ta'kidlaganda, tyutorlik talabaning o'sishi va rivojlanishiga qaratilgan o'quv hamkorligidir.

O'qituvchilar va tyutorlarning egallagan o'rni bir biridan farq qilsada, talabalarining ta'lim olish jarayonida ikkisi ham birdek muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar – o'quv rejasini ishlab chiqish, darslarni o'tkazish va talabalar faoliyatini baholash uchun mas'uldirlar.

O'qituvchilar ham xuddi tyutorlardek o'z o'quvchilari bilan individual aloqa o'rnatadilar, lekin ularning ishi asosan ma'ruzalar va mashg'ulotlar orqali bir guruh o'quvchilar uchun kursni belgilashdan iborat.

Tyutorlar – tyutor sifatida ular kursni boshidan mutloq o'zgartirib tashkillashmaydi.

Buning o'rniga, tyutorlar o'quvchilarni o'qituvchi bergan yo'nalish bo'yicha yo'naltiradi. Talabaga ta'lim olish, darslarni o'zlashtirish va o'qishlarini boshqarishda yordam beradi.

Demak, tyutorlar talabalarini qo'llab-quvvatlash orqali o'z kutgan natijalariga erishishlari mumkin. Tyutor har bir talabaga ularning oliygohdagi tahsili davomida yelkadosh malahatchi, ustoz bo'lishi zarur.

Xalqimiz topib e'tirof etganidek, ota-ona farzandni dunyoga keltiruvchi va unga shu dunyo mo'jizalarini ko'rsatuvchi zotlar bo'lsa, ustoz uni fikran ulug'likka eltuvchi, komillik sari yetaklovchi va shu asnoda ikki dunyo saodatidan bahramand etguvchi zotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
- 2) Xorijiy va mahalliy ilmiy maqolalar, metodik qo'llanmalar va elektron manbalar.
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga oid qaror va farmonlari.
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida||gi PF 5847 son Farmoni//lex.uz
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 656-sonli qarori — "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish tartibi to'g'risida".
- 6) Muhammadovna, O.R.N. (2022). talaba shaxsini individual rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining asosiy konsepsiyalari. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali,
- 7) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy ta'lim muassasalarida tyutor (akademik maslahatchi) faoliyatini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlari va buyruqlari.
- 8) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
- 9) Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining tyutorlik faoliyatini tashkil etish bo'yicha ichki nizomlari va rektor buyruqlari.
- 10) Ковалева Т. М. О деятельности тьютора в современном образовательном учреждении // Организация тьюторского сопровождения в образовательном учреждении: содержание, нормирование и стандартизация деятельности тьютора: материалы Всероссийского научно-метод. семинара (Москва, 18–19 мая 2009 г.). М.: АПКиППРО, 2009. 188 с.
- 11) Ismoilov B., Xudoyberdiyev D. Oliy ta'limda kredit-modul tizimi va akademik maslahat instituti. – Toshkent, 2021.
- 12) Елькина О. Ю. Теоретическая модель подготовки будущего учителя к формированию продуктивного опыта младших школьников // Вестник Томского гос. пед. (ТДПУ axborotnomasi). 2007. Вып. 7 (70). С. 23–27.
- 13) Abdurahmonov A. Ta'limda talaba markazlashgan yondashuv va uning samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2020.
- 14) Qo'shakov S. Zamonaviy oliy ta'limda pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent, 2019